LINGVOMADANIY ASPEKTDA O‘ZBEK-FRANSUZ RASMIY MATNLARINING GERMENEVTIK-KOMPARATIVISTIK TADQIQI

F.K.Davlatova[1]

1. Harbiy oliy ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muallif: Davlatova Firuza Kamolovna, Harbiy oliy ta’lim muassasasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

e-mail: firuzad443@gmail.com

Received: 31 Oktabr 2026
Accepted: 05 Noyabr 2026
Published: 10 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Davlatova, F. K. LINGVOMADANIY ASPEKTDA O‘ZBEK-FRANSUZ RASMIY MATNLARINING GERMENEVTIK-KOMPARATIVISTIK TADQIQI / F. K. Davlatova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 284–287.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va fransuz rasmiy matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari germenevtik-komparativistik metod asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot rasmiy matn, germenevtika va komparativistika tushunchalarining nazariy ta’rifidan boshlanib, ikki tildagi rasmiy hujjatlarning murojaat, xayrlashuv formulalari, huquqiy-ma’muriy terminologiyasi, kompozitsion tuzilishi va madaniy-implitsit ma’nolarini qiyosiy tahlil qiladi. Tahlil jarayonida o‘zbek va fransuz rasmiy tillarining o‘ziga xos pragmatik va madaniy me’yorlari ochib beriladi. Xususan, fransuz rasmiy uslubiga xos bo‘lgan qat’iy etiket qoidalari va murakkab sintaktik qurilmalar hamda o‘zbek diplomatik va ma’muriy hujjatchiligidagi milliy-madaniy xususiyatlar, hurmat va iyerarxik munosabatlarni ifodalovchi til birliklari qiyosiy o‘rganiladi. Hujjatlar matnidagi implitsit ma’nolarni anglashda germenevtik talqin usulining roli alohida baholanadi. Tadqiqot natijalari xalqaro muloqot va tarjima amaliyotida yuzaga keladigan madaniyatlararo tushunmovchiliklarning oldini olishga, qiyosiy tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalaridagi ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada berilgan xulosalar diplomatik va huquqiy matnlarni akademik hamda professional darajada tarjima qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: rasmiy matn, germenevtika, komparativistika, lingvomadaniyat, muomala odobi, rasmiy uslub, tarjima.

ГЕРМЕНЕВТИКО-СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКО-ФРАНЦУЗСКИХ ОФИЦИАЛЬНЫХ ТЕКСТОВ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Аннотация. В данной статье на основе герменевтико-сравнительного метода исследуются лингвокультурологические особенности узбекских и французских официальных текстов. Исследование начинается с теоретического определения понятий «официальный текст», «герменевтика» и «компаративистика», после чего проводится сравнительный анализ формул обращения и прощания, юридическо-административной терминологии, композиционной структуры и культурно-имплицитных смыслов в официальных документах двух языков. В ходе анализа раскрываются специфические прагматические и культурные нормы узбекского и французского официальных языков. В частности, сопоставительно изучаются строгие этикетные правила и сложные синтаксические конструкции, характерные для французского официального стиля, а также национально-культурные особенности, языковые единицы выражения уважения и иерархических отношений в узбекском дипломатическом и административном делопроизводстве. Особо оценивается роль метода герменевтической интерпретации в понимании имплицитных смыслов в текстах документов. Результаты исследования служат предотвращению межкультурных недопониманий, возникающих в практике международной коммуникации и перевода, а также обогащению научных взглядов в области сопоставительного языкознания и лингвокультурологии. Кроме того, сформулированные в статье выводы позволяют разработать практические рекомендации по академическому и профессиональному переводу дипломатических и юридических текстов.

Ключевые слова: официальный текст, герменевтика, компаративистика, лингвокультура, речевой этикет, официальный стиль, перевод.

HERMENEUTIC-COMPARATIVE STUDY OF UZBEK-FRENCH OFFICIAL TEXTS IN THE LINGUOCULTURAL ASPECT

Abstract. This article explores the linguocultural characteristics of Uzbek and French official texts based on the hermeneutic-comparative method. The study begins with theoretical definitions of the concepts of “official text”, “hermeneutics”, and “comparative studies”, followed by a comparative analysis of address and farewell formulas, legal-administrative terminology, compositional structure, and culturally implicit meanings in official documents of both languages. Throughout the analysis, the specific pragmatic and cultural norms of the Uzbek and French official languages are revealed. In particular, a comparative study is conducted on the strict etiquette rules and complex syntactic

structures characteristic of the French official style, alongside the national-cultural features and linguistic units expressing respect and hierarchical relationships in Uzbek diplomatic and administrative documentation. The role of the hermeneutic interpretation method in understanding implicit meanings in document texts is specifically evaluated. The findings of the research serve to prevent intercultural misunderstandings that arise in international communication and translation practice, as well as to enrich scientific perspectives in the fields of comparative linguistics and linguoculturology. Furthermore, the conclusions drawn in the article provide practical recommendations for the academic and professional translation of diplomatic and legal texts.

Keywords: official text, hermeneutics, comparative studies, linguoculture, communicative etiquette, official style, translation.

Kirish, Globallashuv sharoitida O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi rasmiy hujjatlar almashinuvini keskin oshirdi, bu esa o‘z navbatida matnlarni nafaqat lingvistik, balki chuqur madaniy-huquqiy nuqtai nazardan talqin qilish zaruratini tug‘dirmoqda. Rasmiy matnlar faqat quruq ma’lumot tashuvchi vosita emas, balki har bir millatning huquqiy ongi, ma’muriy an’analari va milliy mentalitetining o‘ziga xos ko‘zgusidir. Shu sababli biz o‘zbek va fransuz rasmiy matnlarining lingvomadaniy xususiyatlari germenevtik (matnning yashirin va chuqur ma’nosini kontekst orqali talqin qilish) hamda komparavistik (ikki tizimni qiyosiy tahlil qilish) yondashuvlar asosida o‘rganishni joiz deb topdik. Bunda ikki davlatning rasmiy diskurslaridagi sintaktik, leksik va pragmatik farqlarning madaniy ildizlarini ochib berish orqali xalqaro hujjatlar tarjimasi va talqinidagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek va fransuz tilidagi rasmiy matnlarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida biz ikki xil huquqiy va madaniy an’anaga guvoh bo‘lamiz. Fransuz rasmiy diskursi Inqilob va Napoleon Kodeksidan asos oladi. U aniqlik, deduktiv mantiq va universalizmga tayanadi. Sintaksis ko‘pincha murakkab bo‘lib, obyektlikni ta’minlash uchun tobe gaplar keng qo‘llaniladi. Buning aksi o‘laroq, o‘zbek rasmiy diskursi xalqaro standartlarni qabul qilgan holda ham, sharqona muloqot madaniyatining ba’zi xususiyatlarini saqlab qolgan. Unda muomala formulalariga, hurmat unvonlariga va suhbatdosh yoki yuqori organga bo‘lgan hurmatni ta’kidlovchi sintaksik tuzilmalarga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, madaniyatlararo tushunmovchiliklarga, hatto huquqiy oqibatlarga olib keluvchi jiddiy tarjima xatoliklariga yo‘l qo‘ymaslik uchun lingvomadaniy xususiyatlarni chuqur anglash talab etiladi. Bunda tarjimon matnning harfi va u tashiyotgan huquqiy hamda ma’muriy madaniyat ruhi o‘rtasidagi germenevtik doirada harakat qilishi lozim. Bu esa o‘z navbatida xalqaro huquqiy muloqotda o‘zaro tushunovchanlikni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Asosiy qism, Manbalarda keltirilishicha[1], rasmiy matn (frans. texte officiel) davlat, ma’muriy, huquqiy yoki diplomatik muassasa tomonidan yaratiladigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga, yuridik faktlarni qayd etishga yoki normativ ahamiyatga ega axborotni uzatishga xizmat qiladigan funksional matn turi hisoblanadi. O‘zbek va fransuz ish yurituvida ariza, rasmiy xat, ma’lumotnoma, farmon (prezident farmoni), qaror va bitim (shartnoma) kabi hujjatlar rasmiy matn sirasiga kiradi. Rasmiy hujjatlardagi matn ohangning obyektiv va betarafligi, leksik-semantik standartlashganlik, ya’ni qabul qilingan klishe va formulalarning mavjudligi, yakka shaxs ekspressivligining yo‘qligi bilan badiiy va ilmiy matndan farqlanadi. Ular qat’iy standartlashtirish (bandlar, formulalar, rasmiy qoliplar), terminologik aniqlik, ikki ma’nolilikning yo‘qligi va majburiy huquqiy yoki ma’muriy kuchga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Rasmiy matnlarning asosiy pragmatik vazifasi 3 ta bo‘lib, asosan, buyruq beruvchi, ma’lumot beruvchi yoki performativ xususiyatga ega bo‘lish bilan belgilanadi.

Rasmiy matnlar kontekstida germenevtika faqat so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra, bayonotning chuqur ma’nosini tushunish va tafsir qilish metodologiyasidir. U dastlab muqaddas matnlarni tafsir qilish san’ati sifatida aniqlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda lingvistika va tarjimashunoslikka tatbiq etilmoqda. Germenevtika yunoncha hermeneuein so‘zidan olingan bo‘lib, “talqin qilmoq” degan ma’noni anglatadi[2] va matnlarni talqin qilish san’ati hamda nazariyasiga bag‘ishlangan falsafiy-lingvistik fan sifatida talqin qilinadi. U matnning butunligini uning qismlari (maxsus huquqiy terminlar) orqali tushunish va aksincha, matn yaratgan madaniy va tarixiy kontekstni hisobga olish orqali tushunadi. F.Shleyermaxer[3], keyinchalik esa G.Gadamerdan[4] meros qolgan zamonaviy germenevtika har qanday matn o‘zining bevosita harfiy ma’nosidan ortiq ma’noni o‘zida mujassam etadi va bu ma’no matnning yaratilishi hamda qabul qilinishi jarayonidagi tarixiy, madaniy va nutqiy kontekst asosida qayta tiklanishi lozim, deb ta’kidlaydi. Rasmiy matnga nisbatan qo‘llanilganda, germenevtika qotib qolgan formulalarning sof grammatik vazifasidan tashqarida nimani anglatishini ochishga imkon beradi. Masalan, muomala formulasi hech qachon oddiy uslubiy bezak emas, u tarix, hurmat va hokimiyatning madaniy tushunchasini ifoda etuvchi vosita hisoblanadi. Fransuz tilidagi rasmiy hujjatlarda xayrlashuv “hissiyot” leksikasini (considération – ehtirom, salutations distinguées – oliyjanob tabriklar), o‘zbek tilida esa “hurmat”ni ifodalaydi. Bunday leksik farq shaxs va muassasa o‘rtasidagi munosabatning turlicha madaniy tushunchalariga ishora qiladi.

O‘zbek va fransuz rasmiy matnlaridagi germenevtik hodisalarni komparavistik yondashuvga murojaat qilmay turib, uning chuqur tahliliga erishmaymiz. Ikki til va madaniyat o‘rtasidagi qiyosiy tahlil komparativistika va lingvomadaniyatshunoslik doirasida olib boriladi. V. fon Gumboldtning[5] “tilning ichki shakli” va lingvomadaniy dunyoqarash nazariyasi, E. Sepir[6] va F. Rastiyening[7] lingvistik qarashlari rasmiy matnlardagi milliy mentalitet aksini o‘rganishda asosiy o‘rin tutadi. Komparativistika qiyosiy-kontrastiv tadqiqot usuli bo‘lib, ikki yoki undan ortiq til yoki matn tizimlarini izchil ravishda bir-biriga qiyoslab, ularning umumiylik va o‘ziga xosliklarini aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuv hisoblanadi. Tarjimashunoslikka tadbiq etilgan lingvistikada komparativistika oddiy kontrastiv lingvistikadan farqli o‘laroq, faqat grammatik tuzilmalarni qiyoslash bilan cheklanmaydi, balki qiyoslanayotgan matnlarning madaniy, pragmatik va kommunikativ jihatini ham o‘z ichiga oladi. Demak, germenevtika talqin chuqurligini,

komparativistika esa qiyosiy kenglikni ta'minlaganligi bois, germenevtik-komparativistik uyg'unlik tarjimashunoslikda o'ziga xos metodologik negizni tashkil etadi.

Rasmiy matnlarining kompozitsion tuzilishini alohida ko'rib chiqsak:

Rasmiy xatlarning kompozitsion tuzilishida ham sezilarli farqlar kuzatiladi. Fransuz tilida sarlavha qismi quyidagi tartibni afzal ko'radi. Bunda jo'natuvchi ma'lumotlari (yuqori chapda), qabul qiluvchi ma'lumotlari (yuqori o'ngda), joy va sana (Paris, le 7 juillet 2026), mavzu (Objet: ...), so'ngra matn tarkibi joy oladi. O'zbek tilida sana odatda hujjat boshida yoki imzodan oldin, teskari formatda, ya'ni yil, oy, kun tarzida joylashtiriladi.

Masalan, fransuz tilida: "Paris, le 7 juillet 2026" tarzida yozilsa, o'zbek tilida "Toshkent, 2026 yil 7 iyul" tarzida ifodalanadi. Ushbu farq bir qarashda sof texnik ko'rinsa-da, aslida ma'muriy vaqtning turlicha tushunchasini ochib beradi. Fransuz tartibi (kun-oy-yil) xususiydan (aniq kun) umumiyga (yil) tomon boradi, o'zbek tartibi (yil-oy-kun) esa aksincha, umumiydan xususiyga tomon boradi. Bu mantiqni biz o'zbek fuqarolik hujjatlaridagi ism-familiya tartibida ham kuzatishimiz mumkin, unda blankalarda ko'pincha familiya ismdan oldin keladi, bu esa fransuz tilidan farq qiladi. Muhr (frans. cachet, o'zb. muhr) ham turlicha ramziy ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek hujjatida imzo ostiga qo'yiladigan muhr (ko'pincha "M.O'." – "muhr o'rni" belgisi bilan birga) xalq tasavvurida imzoning o'zidan ham yuqoriroq tasdiqlovchi qiymatga ega, bu esa tarixan hukmdor yoki muassasa muhri yakka shaxs imzosidan ustun turgan ma'muriy an'ana izidir. Fransiyada esa, aksincha, shaxsiy imzo fuqarolik kodeksidan beri shaxsning o'z majburiyatini yuridik tasdiqlovchi asosiy belgi hisoblanadi, institusional muhr esa qo'shimcha ahamiyatga ega xolos. Murojaat va muomala formulalari. Dastlabki murojaat formulasi rasmiy matnda aks etgan ijtimoiy iyerarxiyaning birinchi belgisidir. Fransuz tilida rasmiy xat odatda lavozim unvoniga asoslangan lo'nda formula bilan boshlanadi[8]. Masalan, "Monsieur le Directeur, j'ai l'honneur de porter à votre connaissance que..." ("Janob direktor, men Sizning e'tiboringizga quyidagilarni yetkazishni sharaf deb bilaman..."). O'zbek tilida mos formula doimiy ravishda hurmat unvonidan "hurmatli" so'ng lavozim nomini va fransuz tilida grammatik muqobili bo'lmagan -lar qo'shimchasi orqali ifodalanuvchi muomala ko'pligini safarbar etadi. "Hurmatli direktor janoblari, Sizning e'tiboringizga quyidagilarni yetkazishni ma'qul topdim...". Ushbu farqning germenevtik tahlili muomala strategiyasidagi farqni ochib beradi, ya'ni fransuz tili "sharaf" (l'honneur) qotib qolgan formulasiga tayanadi, bu esa muallifni institusional kamtarlik mavqeiga qo'yadi, o'zbek tili esa hurmatli sifatdoshiga, ba'zan esa adresat nomidagi -lar hurmat qo'shimchasi bilan takrorlanuvchi usulga tayanadi, bu esa hurmatni aniqroq iyerarxik tushunishni ifodalaydi. Uning ildizi turk-fors sharqi an'analaridan meros bo'lib, unda hurmat unvonisiz to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish adresatning obro'siga putur yetkazuvchi harakat sifatida qabul qilinadi.

Xayrlashuv formulalari. Fransuz tilidagi xayrlashuv formulasi o'zining sintaktik murakkabligi va leksik hissiy yuklamasi bilan ajralib turadi. "Je vous prie d'agréer, Monsieur le Directeur, l'expression de ma considération distinguée". ("Janob direktor, chuqur ehtiromimni qabul qilishingizni so'rayman"). Professional tarjimonlar tomonidan ko'pincha "tarjima qilib bo'lmaydigan" deb baholanadigan ushbu formula xushmuomalalik bilan iltimos qilish fe'li (je vous prie), qabul qilish fe'li (agréer) va mavhum his-tuyg'u otini (considération) birlashtiradi. O'zbek tilidagi funksional muqobili esa sintaktik jihatdan ancha qisqa bo'lib, hurmat o'zagiga markazlashgan. Masalan, "Chuqur hurmatim bilan" yoki yanada rasmiyroq hujjatlarda "Ishlaringizda omad tilab qolaman". Germenevtik talqin bu yerda asosiy kontrastni ochib beradi, ya'ni fransuz tili hurmatni sintaktik uzunlik va leksik murakkablik orqali ifoda etadi (formula qanchalik uzun va mavhum bo'lsa, u shunchalik hurmatli deb qabul qilinadi), o'zbek tili esa hurmatni bir markaziy leksema (hurmat) semantik zichligi orqali ifoda etadi, bunda qisqalik hech qanday hurmatsizlik belgisi sifatida qabul qilinmaydi.

Terminologik qiyoslash jo'g'rofiy-ma'muriy huquqning umumiy tarixidan kelib chiqqan ko'p jihatdan izchil janriy moslikni, shu bilan birga sezilarli farqlarni ham namoyon etadi. Quyidagi jadvalda korpusda kuzatilgan ba'zi tipik moslar keltirilgan:

Fransuz termini	O'zbek termini	Lingvomadaniy izoh
Décret	Farmon	Davlat rahbarining hujjati; O'zbekistonda fors tilidan o'zlashgan termin bo'lib, yarim patriarxal hokimiyatni anglatadi.
Arrêté	Qaror	Kollegial ma'muriy qaror; qaror ko'pincha jamoaviy organning (kengash) qarorini anglatadi.
Convention / Accord	Bitim / Shartnoma	Bitim irodalar kelishuvini, shartnoma esa shartli bandni (shart) ta'kidlaydi.
Certificat	Ma'lumotnoma	So'zma-so'z "axborot xati"; fransuz tilidagiga nisbatan kamroq rasmiylik ottenkasiga ega.
Demande	Ariza	Arabcha kelib chiqishga ega; O'zbekistonda boshlang'ich sinflardan o'rgatiladigan qat'iy kodifikatsiyalashgan janr.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu moslik aniq ekvivalent bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, farmon termini Markaziy Osiyo siyosiy tarixidagi xon farmonlari bilan bog'liq an'anaviy patriarxal hokimiyat yukini o'zida saqlaydi, bu ma'no esa fransuz décret terminida yo'q, zero u Inqilobdan beri ijro hokimiyati nazariy jihatdan dunyoviylashtirilgan respublika madaniyati mahsulidir. O'zbek va fransuz rasmiy matnlarini tahlil qilishda leksik va kompozitsion farqlardan tashqari, germenevtik tahlil chuqur ildiz otgan madaniy ma'no qatlamlarini ham ochib beradi. Diplomatik bayonotlar va notalar misolida bu juda yaqqol namoyon bo'ladi. Fransuz rasmiy matni Dekartcha mantiqqa asoslangan to'g'ridan-to'g'ri

sintaksisga ega bo‘lib, “La République française ne saurait accepter” yoki “La France exprime ses réserves formelles” kabi iboralar orqali o‘z pozitsiyasini aniq va ravshan ifodalaydi. Bu yerda fransuz madaniy qatlamidagi huquqiy-ratsional ong va universalizm falsafasi yotadi. E’tirozni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildirish adolat, haqiqat va xalqaro huquq normalariga sodiqlik ramzi sifatida qabul qilinadi. Aksincha, o‘zbek rasmiy matni yumshoqroq, ishonch hamda hamkorlikka urg‘u beruvchi uslubga ega[9]. Masalan “Tomonlar o‘zaro ishonch va konstruktiv muloqot ruhida fikr almashdilar, shuningdek, mavjud masalalar bo‘yicha o‘z yondashuvlarini bildirdilar” kabi iboralar qo‘llaniladi. Bu o‘zbek madaniy qatlamidagi sharqona diplomatiya, kelishuv va obro‘ni saqlash tamoyillarini aks ettiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri “e’tiroz” so‘zini ishlatish o‘rniga, “o‘z yondashuvlarini bildirdilar” yoki “mulohaza yuritildi” kabi iboralar orqali kelajakdagi hamkorlik ko‘prigini saqlab qolish maqsadida rasmiy matnlar shakllantiriladi.

Xulosa. Qonunchilik va konstitusiya matnlarida ham shu farqlar kuzatiladi. Fransuz rasmiy matni abstrakt va universal subyektga qaratilgan tuzilishga ega bo‘lib, “Tout homme a le droit de” yoki “Nul ne peut être arbitrairement” kabi iboralar qo‘llaniladi. Bu fransuz madaniy qatlamidagi individualizm va ijtimoiy shartnoma falsafasini aks ettiradi. Inson jamiyatdan ajralgan, mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi va qonun shu mustaqil insonlarning erkinligini himoya qiluvchi ratsional kelishuv hisoblanadi. O‘zbek rasmiy matni esa ko‘proq aniq subyekt va uning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini ta’kidlovchi tuzilishga ega. “Fuqarolarning jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyati” yoki “Oila, mahalla va jamiyat manfaatlari” kabi iboralar qo‘llaniladi. Bu o‘zbek madaniy qatlamidagi kollektivizm g‘oyalarini aks ettiradi, ya’ni inson oila, mahalla, jamiyat va davlatning ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘riladi. Mas’uliyat tushunchasi faqat qonun oldida emas, balki jamiyat va kelajak avlodlar oldidagi ma’naviy qarz sifatida germenevtik jihatdan talqin qilinadi.

Rasmiy davlat dasturlari va konsepsiyalarda ham bu madaniy farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Fransuz rasmiy matni texnokratik va ratsional leksikaga ega bo‘lib, “Modernisation”, “Rationalisation des dépenses”, “Progress technique”, “Laïcité” kabi tushunchalar atrofida quriladi. Matn aniq ko‘rsatkichlar, optimizatsiya va samaradorlik atrofida shakllanadi. Bu fransuz madaniy qatlamidagi ma’rifatparvarlik an’anasi va sekulyarizm falsafasini aks ettiradi. Rivojlanish faqat iqtisodiy yoki texnik progress emas, balki aql-idrok orqali erishiladigan universal qadriyatlarning g‘alabasi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek rasmiy matni esa ma’naviy-axloqiy va tarixiy leksika bilan qorishilgan tuzilishga ega. “Ma’naviyat”, “Ulug‘vor meros”, “Inson qadrini ulug‘lash” kabi tushunchalar keng qo‘llaniladi. Bu o‘zbek madaniy qatlamidagi ma’naviy-ma’rifiy uyg‘onish va tarixiy uzluksizlik falsafasini aks ettiradi. Iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar shunchaki texnik jarayon emas, balki ajdodlar merosini tiklash, milliy o‘zliqni anglash va insonning ma’naviy yetiluvi bilan chambarchas bog‘liq deb qaraladi. Davlat faqat boshqaruv apparati emas, balki xalqning ma’naviy va ma’rifiy yuksalishini ta’minlovchi otaliq institut sifatida namoyon bo‘ladi. Germenevtik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va fransuz rasmiy matnlarini tarjima qilish yoki tahlil qilishda faqat rasmiy-ishbilarmonlik uslubining quruq qoidalariga amal qilish yetarli emas. Tarjimon fransuz matnidagi kartezian mantiq, individual huquqiy ong va sekulyar ratsionalizm bilan o‘zbek matnidagi sharqona diplomatik etiket, jamoaviy mas’uliyat va ma’naviy-ma’rifiy paternalizm o‘rtasidagi chuqur madaniy tarjimani amalga oshirishi shart. Faqat shu yo‘l bilan matnning madaniy mohiyati ham to‘liq saqlanib qoladi.

Fransuz huquqiy tili hozirgi zamon va shaxssiz majhul nisbat tuzilmalaridan keng foydalanadi. O‘zbek tili esa bunday holatlarda ko‘pincha buyruq fe’l shakli, “-ilsin” qo‘shimchasini yoki fe’l otlar ishtirokidagi konstruksiyalarni ishlatadi. Masalan, fransuzcha: “Il est institué une commission nationale chargée de veiller à l'application des présentes dispositions” – mavjud qoidalarning bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha milliy komissiya ta’sis etiladi. Mazkur jumla o‘zbek tilida “ushbu qoidalarning bajarilishini nazorat qilish bo‘yicha milliy komissiya tuzilsin”. Bu shakl sintaktik jihatdan shaxssiz bo‘lsa-da, hokimiyat tomonidan aytilgan tantanali buyruqqa yaqinroq bo‘lgan ifodaviy-buyruq ohangini saqlab qoladi. Ushbu grammatik farqning germenevtikasi ikki ma’muriy hokimiyat falsafasini ochib beradi. Bunda inqilobdan keyingi fransuz an’anasiga xos “tarqoq” va protseduraviy byurokratik hokimiyat va Markaziy Osiyo ma’muriy an’anasiga xos bevosita mujassamlashgan va buyruq-farmoyish xarakteridagi hokimiyat.

Mazkur maqolada amalga oshirilgan germenevtik-komparativistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va fransuz rasmiy matnlari, jo‘g‘rofiy-ma’muriy huquqning umumiy tarixidan meros qolgan ko‘p jihatdan izchil janriy va strukturaviy moslikka ega bo‘lishiga qaramay, o‘zida chuqur farqlangan madaniy ma’no qatlamlarini mujassam etadi. Murojaat, muomala va xayrlashuv formulalari, huquqiy-ma’muriy terminologiya, sana tartibi va muhrdan foydalanish kabi holatlar ijtimoiy iyerarxiya, shaxs va muassasa o‘rtasidagi munosabat, davlat va muqaddaslik o‘rtasidagi munosabatning turlicha tushunchalarini fosh etuvchi lingvomadaniy belgilar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Ricœur P. Du texte à l'action. Essais d'herméneutique II. – Paris: Seuil, 1986.

[2] Schleimaher F. Des differentes méthodes du traduire. – Paris: Seuil, 1999. P. 178.

[3] Gadamer H.-G. Vérité et méthode. Les grandes lignes d'une herméneutique philosophique. – Paris: Seuil, 1996.

[4] Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию / пер. с нем. яз. под ред. Г.В.Рамишвили. М.: Прогресс, 2000. С 397.

[5] Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии / пер. с анг. яз. под ред. А.Е.Кибрика. М.: Прогресс, 1993. 657 с.

[6] Rastier F. Sémantique et recherches cognitives. – Paris: PUF, 1991.

[7] Neubert A., Shreve G.M. Translation as Text. – Kent: Kent State University Press, 1992.

[8] Тошматов Қ.Ш. Матн лингвистикаси ва компаративистика асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.